**UDK:811.411.21:801.82** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a180**

# O‘ZBEK-LOTIN ALIFBOSINI YARATISH UCHUN HARAKATLAR

# АКЦИИ ПО СОЗДАНИЮ УЗБЕКСКО-ЛАТИНСКОГО АЛФАВИТА

# THE ACTIONS ON THE CREATION OF THE UZBEK-LATIN ALPHABET

**Azimov Inomjon Mamasadiqovich[1]**

[1]**Azimov Inomjon Mamasadiqovich** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, dotsenti

***Annotatsiya***

*O‘tgan asrning boshlarida jadidlar nomi bilan tarix sahnasiga chiqqan millat fidoiylari iqtisodi, ilm-fani rivojlangan davlat qurishni orzu qildilar. Buning uchun eng avvalo, millatni savodli qilish, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash zarur edi. Shu maqsadda ular yangi usuldagi maktablar ochish harakatiga tushdilar.*

*Ming yildan ortiq davr mobaynida asosiy yozuv sifatida qo‘llanilib kelingan arab yozuvi o‘qish, o‘qitish ishlarida qiyinchilik tug‘dirayotgani sababli uni isloh qilindi. Arab yozuvi islohi kutilgan natijani bermagandan so‘ng boshqa turkiy xalqlar kabi lotin yozuviga o‘tish harakatiga tushdilar.*

*Arab yozuvidan lotin yozuviga o‘tish harakatlari boshlangandan keyin o‘zbek ziyolilari tomonidan mavjud tovushlarga harf tanlash, ularni ilmiy asoslash bo‘yicha matbuotda maqolalar e’lon qilinib borildi, turli kengash yig‘ilishlari, anjumanlar tashkil qilindi. Yangi alifbo tuzishda singarmonizmli shevalarga asoslanish kerakmi? yoki singarmonizmsiz, o‘zbek tili tabiatini ochib berolmaydigan, buzuq shevalarga asoslanish kerakmi? degan masala kun tartibida turar, bu masalada juda ko‘plab tortishuvlar, bahs-munozaralar bo‘lgan. Bunday tortishuvlar milliy alifbo yaratish harakatiga ham ta’sir qiladi, natijada yuqorida aytilganidek, turli tashkilotlar tomonidan to‘rtta loyiha yaratiladi.*

*Maqolada uch manba asosida berilgan mazkur alifbo loyihalari o‘zaro solishtirilib, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlar, harflarning olinishida ularning ilmiy asoslanganligi, ularning yutuq va kamchiliklari tahlilga tortiladi.*

***Аннотация***

*В начале прошлого века подвижники нации, вышедшие на историческую сцену под именем джадидов, мечтали построить государство с развитой экономикой и наукой. Для этого нужно было, прежде всего, сделать нацию грамотной, воспитать молодежь, овладевшую современными знаниями. С этой целью они учреждали школы по-новому.*

*Арабское письмо, которое использовалось в качестве основного письма более тысячи лет, было реформировано из-за трудностей в чтении и обучении. Когда эта реформа не дала ожидаемого результата, начались попытки перехода на латиницу, как и у других тюркских народов.*

*После начала движения за переход с арабской графики на латиницу узбекская интеллигенция публиковала статьи о подборе букв для существующих звуков, их научном обосновании, организовывала различные заседания советов и конференции. Следует ли опираться на сингармонистические диалекты при составлении нового алфавита? Или надо опираться на коррумпированные диалекты без сингармонизма, которые не могут раскрыть природу узбекского языка? Этот вопрос стоял на повестке дня, и было много споров и разногласий по этому вопросу. Такие споры также повлияли на движение за создание национального алфавита, что привело к созданию четырех проектов различными организациями, как упоминалось выше.*

*В статье сравниваются проекты этого алфавита, данные на основе трех источников, и анализируются сходные и различные стороны в них, их научное обоснование в получении букв, их достижения и недостатки.*

***Abstract***

*At the beginning of the last century, the devotees of the nation, who appeared on the stage of history under the name of Jadids, dreamed of building a state with a developed economy and science. To do this, it was necessary, first of all, to make the nation literate, to educate young people who have acquired modern knowledge. To this end, they established schools in a new way.*

*The Arabic script, which had been used as the main script for more than a thousand years, was reformed due to difficulties in reading and teaching. When this reform did not give the expected result, efforts began to move to the Latin script, like other Turkic nations.*

*After the beginning of the movement for the transition from the Arabic script to the Latin, Uzbek intellectuals published articles on the selection of letters for the existing sounds, their scientific justification, and organized various council meetings and conferences. Should singarmonistic dialects be based on when composing a new alphabet? Or should one be based on corrupt dialects without singarmonism, which cannot reveal the nature of the Uzbek language? This issue was standing on the agenda, and there were a lot of disputes and controversies on this issue. Such controversies also influenced the movement to create a national alphabet, resulting in the creation of four projects by different organizations, as mentioned above.*

*The article compares the projects of this alphabet given on the basis of three sources, and analyzes similar and different aspects in them, their scientific justification in the obtaining of letters, their achievements and disadvantages.*

***Kalit so‘zlar:*** *alifbo, imlo, isloh, unli tovush, undosh tovush, singarmonizm, harf, fonema, yot harflar, yozuv.*

***Ключевые слова:*** *alfavit, pravopisanie, reforma, glasnыy zvuk, soglasnыy zvuk, singarmonizm, pismo, fonema, inostrannыe bukvы, pismo.*

***Key words:*** *alphabet, spelling, reform, vowel sound, consonant sound, singarmonism, letter, phoneme, foreign letters, writing.*

## KIRISH

O‘zbek ziyolilari oldida turgan muhim masala – milliy alifbo yaratishda hali yetarli tajriba mavjud emas edi. O‘sha paytgacha turkiy tillar ichida faqat yoqutlar va ozarbayjonlargina lotin alifbosiga o‘tgan, lekin hali kamchilik va muammolari ham yetarli edi. Ikkinchidan, jadid tilshunosligida alifbo yaratish bo‘yicha ilmiy nazariya va amaliyotlar shakllanmagan edi.

Birinchi navbatda, o‘zbek tilidagi tovush tarkibi asosida uning yozuv sistemasi shakllanishi va keyinchalik u asosida grafika (alifbo) va orfografiya (to‘g‘ri yozuv) ishlab chiqilishi kerak edi. Yozuv sistemasini shakllantirish uchun o‘zbek tilining fonemologik sistemasini, ya’ni nutqni tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan va yozuvda ifodalanishi lozim bo‘lgan tovush farqlari minimumini aniqlashtirish, keyin ushbu minimumni yozuvda nisbatan tejamkorlik bilan ifodalash masalasi hal qilinishi kerak edi.

Boshqa turkiy tillar, jumladan, ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq tillarida bu masalani hal qilish nisbatan osonroq edi, chunki bu tillar bir lahjaga (masalan, qirg‘iz, qozoqlar qipchoq, ozarbayjon o‘g‘uz lahjasiga) asoslangan tillar bo‘lsa, o‘zbek tilida har uch lahja mavjud edi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Istiqloldan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Lekin o‘sha davrda juda ko‘plab taniqli jadid ziyolilari milliy o‘zbek adabiy tilini, yaratish, alifboni takomillashtirish bo‘yicha jiddiy faoliyat olib borgan bo‘lsa-da, hozirgacha ularning sanoqlilarininggina faoliyati, ilmiy merosi tadqiq qilindi. Jumladan, M.Qurbonova va Y.Sayidovlar tomonidan Fitratning tilshunoslik merosi, adib asarlarining leksikasi tadqiq qilingan bo‘lsa [2; 3], M.Yo‘ldoshev va D.Ne’matova Cho‘lpon [4; 5], Sh.Bobomurodova Elbek [6], T.Tog‘aev Ashurali Zohiriy [7], A.Boboniyozov, Z.Chorieva, L.Djalolovalar Abdulla Qodiriy [8; 9; 10], S.Normamatov Abdulla Avloniy [11]ning ijodiy merosi, ilmiy faoliyatini tahlil qilganlar.

Tadqiqot obyektini O‘zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan 1920-1930-yillarda turli gazetalarda e’lon qilingan adabiy til, imlo masalasi haqidagi maqolalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda analiz, sintez, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, sintaktik-semantik, uslubiy-vazifaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

H. Jamolxonov ushbu loyihalarning ikkitasi haqida hozirgi amaldagi yozuvda tabdili bilan ma’lumot bergan bo‘lsa[12], N.Yangibaeva ularni ilmiy tahlilga tortgan[13].

Mazkur alifbo loyihasining dastlabkisi 1926-yil 19-, 20-, 21-may kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan anjumanda muhokama qilinadi. Ushbu anjuman O‘zbekiston xalq maorifi komissarligi ma’lumotiga ko‘ra o‘zbek alifbosini lotinlashtirish uchun chaqirilgan kengash bo‘lgan. Mazkur loyihada unli tovushlar (ular “ovozlar” va “cho‘zg‘i harflar” deb yuritilgan) 10 ta, undosh tovushlar (ular “harflar” deb yuritilgan) 22 ta deb belgilangan.

G.Bogdanova ham ayni shu loyiha haqida ma’lumot beradi[14], lekin uning ma’lumoti bilan N.Yangiboevaning taqdimotida har xilliklar uchraydi. Avval G.Bogdanovaning keltirgan alifbosi hamda bu haqda uning fikrlari bilan tanishamiz.

1926-yilning may oyida bo‘lgan ilmiy kengash tomonidan ishlanma tasdiq uchun O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jumhuriyatining maorif komissarligiga topshirilgan loyiha:

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Bb<br>ب | Pp<br>پ | Tt<br>ت | Ƶƶ<br>ج | Cc<br>چ | Xx<br>خ |
| Dd<br>د | Rr<br>ر | Zz<br>ز | Ss<br>س | Ṣṣ<br>ش | Gg<br>گ |
| Ff<br>ف | Qq<br>ق | Kk<br>ك | g<br>گ | Ŋŋ<br>ڭ | Ll<br>ل |
| Mm<br>م | Nn<br>ن | Vv<br>و | Hh<br>ه | Jj<br>ي | ’<br>Mas’ala |

Unli harflar: و - o, ۇ - ө, و - u, ۇ - u – و, آ - A, ا - a, ه - ə, ى - i, ئ - , ي - e.

Mazkur loyiha haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

1. Unli tovushlarning tarkibiga qaraganda bu loyiha singarmonizm shevalariga asoslanib tuzilgandir.

2. O‘zbek tilida 10 unli tovush borligi tayinlanib, bular uchun 10 harf belgilangandir.

3. Unsiz tovushlarning soni 23 ta tayinlanib, bular uchun ham mustaqil harflar belgilangan. Alifboga apostrof alomati ham kirgizilgan.

4. Yozuv va matbaa uchun harflar bir shaklda olingani, ya’ni bosh harflar qabul qilinmasdan yolg‘iz kichkina harflar olingandir. Orqa tanglay “a” tovushi uchun olingan “A” katta harf shaklida bo‘lsa ham, lekin kichkina harf o‘rnida olingan.

5. Unsiz harflar (q-k, ɑ-g dan boshqa) yo‘g‘on va ingichkasiga qaramasdan bir shaklda belgilangandir[14].

G.Bogdanova loyihada ko‘rsatilgan unli tovushlar haqida fikr bildirib, 10 ta tovush olinganini, qo‘shimcha orqa tanglay “a” tovushini ma’qullaydi. Ilmiy markaz esa bu tovushning ortiqcha ekanini aytadi. Haqiqatan ham, bu tovush turkiy tillar uchun xos bo‘lmagan tovush hisoblanadi.

N.Yangiboeva bu loyihani quyidagi ifodalaydi:

**Unlilar:** و (yo‘g‘on) – o (qol); و (ingichka) - ɵ (kəl); و (uzun) -u (qyv); و (qisqa)- u(kyl); اA, a (at); ہ- ə (mən); ذ - (qildi), ئ-i (kirdi); ۑ- e(ber).

**Undoshlar:** : ب -B, b (bar) پ -P, p (apa); ت- t (taz); ژ, ج -z (zanzal); چ-c (sac); خ-x (xalq); د-d (dəvlət); ر -r (er); س -s (sar); ش -z (qz); غ- z (ozl); ف -f (fitrət); ق -q (aq); ک -k (kəjlək); گ -g (gəzəl) ك - ṇ (taṇ); ل -l (qul); م -m (səmərqənd); ن -n (nan);ۋ -v (vobkənd); ھ -h (bahar); ى-j (jol); ’- apostrof (məs’ələ)[13:24-25].

N.Yangibaeva (’ – apostrof)ni negadir tushirib qoldiradi, ehtimol, bu texnik xatodir [13:24-25]. Loyihaning quyidagi kamchiliklarini aytib o‘tadi:

1.Unlilar uchun harf belgilashdan avval o‘zbek adabiy tili uchun tayanch bo‘ladigan dialektni aniqlab olish zarur edi.

2. Bu loyiha o‘zbek yozuvining barcha nozikliklarini to‘la ifoda qila olmagan. Jumladan, “uzun”, “qisqa” deb yuritilgan “vov” harfining lotincha ekvivalentini bir xil “u” harfi bilan ifodalamoqda. Ehtimol, bu nashriyot xatosidir. Shunday bo‘lsa-da, unlilarni ifodalovchi harflarni tanlash tamoyillari (prinsiplari) aniqlab olinishi lozim edi.

3. Undoshlardan «shin» uchun olingan z, «jim» uchun olingan z harfi, «g‘ayn» uchun olingan g harfining qo‘llanishiga, ژ, ج harflari uchun bir belgining qo‘llanishiga asoslar berilmagan[13:25].

Aytilgan birinchi kamchilik o‘rinli, chunki adabiy tilning tayanch dialektini aniqlab olmasdan turib alifbo yaratib bo‘lmaydi. Bunday holatni yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, hali yetarli darajada ilmiy tajriba yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Ikkinchi tomondan, hali mukammal bo‘lmasa-da, ilk yangi o‘zbek alifbosining yaratilishini juda katta ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin. Ikkinchi kamchilik sifatida “vov” harfining ekvivalenti sifatida lotinchada “u” berilgan deyiladi, bizningcha, “u” haqida gap ketyapti, chunki tadqiqotchining o‘zi ham وuzun) -u (qyv); و (qisqa)- u (kyl) ayni “u” haqida aytib o‘tadi. O‘zi to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bu nashriyotning xatosi, chunki shu yilning 27-29-avgustida bo‘lib o‘tgan Ilmiy kengashda “u”, “u” harflariga maxsus to‘xtalinib, ularning ingichka va qalin unlilarga tanlanishidagi kamchiliklari aytib o‘tilgan (bu haqda quyida alohida to‘xtalinadi). Qolaversa, M.Bogdanova ko‘rsatib o‘tgan loyihada ham “u” va “u” harflari alohida berilgan.

N.Yangiboyeva tomonidan aytilgan uchinchi kamchilik ham o‘rinli, loyiha ijodkorlari alifbo tuzishda bungacha ozgina bo‘lsa-da tajribaga ega bo‘lgan ozarbayjonlik jadidlarga ergashishgan, harflar olishda aynan ozarbayjon alifbosidan foydalanilgan, izoh berishga harakat qilmaganlar.

N.Yangiboyeva va H.Jamolxonovlar tomonidan berilgan loyihalar bir xil, lekin M.Bogdanovaning ma’lumotida o‘zaro farqli jihatlar mavjud, shuning uchun N.Yangiboyeva va M.Bogdanovalar loyiihalar qiyoslandi[18], ular quyidagilar:

- N.Yangiboyeva ikki xil “j” ( ژ, ج) tovushi uchun “z” harfi olinganini aytadi, 1-loyihada bitta “ج” tovushi beriladi va u uchun “ƶ” harfi olingan.
- 1-loyihada “sh” tovushi uchun nimagadir “ș” harfi olingan, 2-loyihada esa “z” olingan. Bu yerda N.Yangiboyevaning varianti o‘rinli, chunki shu yili avgust kengashida tuzilgan loyihada ham “z” olingani, uning olinish sabablarini Abdulla Alaviy aytib o‘tadi[16].

[18] Qaytariqlardan qochish maqsadida G.Bogdanova ma’lumot bergan loyihani 1-loyiha, N.Yangiboyeva ma’lumot bergan loyihani 2-loyiha deb ataymiz.

- 1-loyihada “yozuv va matbaa uchun harflar bir shaklda olingani, ya’ni bosh harflar qabul qilinmasdan yolg‘iz kichkina harflar olingandir” deyiladi-da, berilgan jadvalda kichik harflar bilan birgalikda bosh harflar ham ko‘rsatilgan, 2-loyihada faqat kichik harflar bilan ko‘rsatilgan va bu loyihachilar nuqtayi nazaridan to‘g‘ri.

- 1-loyihada ғ (*g‘*) tovushi uchun alohida harf berilmasdan *g‘* va *g* tovushlari uchun *g* harfi olinganini ko‘ramiz, ehtimol bu nashriyot xatosidir. 2-loyihada esa ғ uchun *z* (ozl-o‘g‘li) harfi olingani aytiladi, lekin yuqorida ko‘rsatilgan uchinchi kamchilikda g‘ayn» uchun olingan *g* harfining olingani aytib o‘tilgan. Demak, “g‘ayn” (g‘) tovushi uchun *g* ni olingani to‘g‘ri, N.Yangiboyevadan xatolik o‘tgan.

Ikki tovush uchun bir harfning olinishi O‘zbekiston xalq maorifi komissarligi huzuridagi Ilmiy markaz tomonidan ham jiddiy kamchilik sifatida e’tirof etiladi. 11-avgustda bo‘lib o‘tgan majlisda ushbu alifbo muhokama qilinib, uning quyidagi kamchiliklari aytib o‘tilgan:

- may oyidagi kengash loyihasi «singarmonizm qonuniga tamoman rioyat qilmag‘an»;

- قول, گول so‘zlaridagi «qisqa zamma» larga birgina harf olingan, boshqa cho‘zg‘ilarga (unlilarga) ikki harf olingan;

- turkiy tillar imlosiga ko‘ra alif juft harf (old va orqa qator tovush) bo‘lishi lozim edi, loyihada uch shakl olingan (bu yerda A, a, ə ko‘zda tutilmoqda);

- har bir xalqning harfi va imlosi o‘z tilidagi fonetik tizimiga (savtiy asos) muvofiq bo‘lishi lozim, shuning uchun fors tilidan o‘zlashgan Ī (A) ortiqcha (ya’ni transkripsiyada ko‘rsatadigan bo‘lsak – “כ”);

- arab harflaridan lotinga o‘tishdan maqsad imloni yengillatish va aksariyat Yevropa mamlakatlarida qo‘llanib kelgan asl lotin harflarini olish edi. Loyihada esa ruscha **ӌ,ԝ,ԛ** harflari, slavyancha **ө** va shuningdek **ə** harflari qabul qilingan. Bu belgilar faraziy shakllar deb yuritilgan;

- boshqa turk o‘lkalarida tuzilgan alifbolar (lotin) e’tiborga olinmagan[13:26; 15:4].

Ilmiy markaz yuqorida yuqoridagi kamchiliklar asosida may kengashi loyihasini ma’qullamaydi va o‘zlari tomonidan tuzilgan loyihani taqdim etadi.

Loyiha H.Jamolxonovlar tomonidan quyidagicha berilgan:

**Cho‘zg‘i (mad) harflar (unlilar).** Loyihada 12 ta unli ko‘rsatilib, ulardan 10 tasi juft, 2 tasi toq unli ekanligi aytilgan:

*Juft cho‘zg‘i(unli)lar*

| **Qalin unlilar** | **Yumshoq unlilar** |
|---|---|
| a – qal, taş, at – ا | ä – käl, sämän, täkä – ه |
| o – toq, qol – و | ö – özbek, cöl, köl – ۇ |
| u – suv, jun, qul – ۇ | ü – sür, tübük, büyräk – و |
| ɔ - qɔl, qɔlɔq – ىَ | ï – kïrmäk, bïlïm, yïl– ي |
| Iy – qiyg‘ir, qiyma–یی | ïy –kïymäk, tïymäk – ئِي |

*Toq cho‘zg‘i (unli)lar*

e – el, sel, yer, termäk, er – ېِ

uv – suv, quv – ۇۋ

Eslatma sifatida quyidagi izohlar bildirilgan:

“Iqtisad yuzasidan jub cho‘zg‘ilar uchun asasiy besh shakl alinib, qalin-yumshaqliqg‘a ajratish alamatiga ikki nuqta qabul qilindi. Yumshaqlig‘ alamatiga ikki nuqtani alishimizg‘a sabab: bu alamat kerak matbaa tajribasida va kerak turkiyatchilar tamanidan qabul qiling‘an bo‘lishidir (lekin aynan qaysi turkiy alifboda borligiga izoh berilmagan). *Qiyma, qing‘ir, qiyşiq* so‘zlaridagi qalin-uzun kasra (ruscha *ы*)ga va *kïymäk, tïymäk* so‘zlaridagi yumshaq-uzun kasraga murakkab alamat alindi, chunki bu tavushlarni bera aladirg‘an shakl latinchada yo‘qdir. O‘shandaq *suv, quv, cuv* so‘zlaridagi zammaga ham yuqarida ko‘rsatilgan sababga ko‘ra murakkab shakl alindi”[15:48].

Bu loyihada ham jiddiy kamchiliklar bor edi, jumladan, N.Yangiboyeva quyidagi kamchiliklarni aytib o‘tadi:” Harflarda ikki nuqtalarning ko‘payib ketishi nashriyot ishlarida noqulaylik tug‘diradi, iy – harfiy birikmasi ham muvaffaqiyatsiz, ayniqsa, orqa qator (transkripsiyada ) unli uchun «ɔ» harfining berilishini tushunish qiyin edi. Toq unli sifatida «e» unlisi bilan birga, uv – harfiy birikmasi to‘g‘risidagi taklif ham ilmiy asoslanmagan edi”[13:26-27].

Tabiiy savol tug‘iladi: jadidlar “Iy”, “ïy” harfiy birikmalarini qaysi manbadan olganlar? Yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, jadidlar alifbo, imlo islohi masalasida tatar tilshunoslari bilan yaqin

aloqada bo‘lganlar. Fitrat, Elbek, Qayum Ramazonlar darslik, qo‘llanmalar yozishda Olimjon Ibrohimov, Jamoliddin Validiy, Fotih Sayfilarning tatar tili sarf va nahv asarlaridan namuna sifatida foydalanganlar, nazariy masalalar, ilmiy terminlarni ishlatish borasida ham ularga suyanganlar. Fotih Sayfi, A.Sa’diy, Sh.Ahmadiy kabi tatar tilshunoslari o‘z tajribalarini o‘zbek tilshunoslari bilan o‘rtoqlashganlar. O‘sha davrlarda tatar tilshunoslari orasida ham bir necha oqimlar bo‘lib, tatar tilida sakkizta, oltita, o‘nta unli mavjud degan fikrni ilgari surganlar. Shu guruhlar ichida “o‘nchilar” degan guruh bo‘lib, ular sakkizta unli tarkibiga “iy”, “uv” diftonlarini ham qo‘shib, 10 ta unlini ilgari surishadi. Ayni shu “o‘nchilar” g‘oyalaridan ilhomlanib, o‘zbek tilida ham mazkur unlilarni alifboga kiritishgan [6:44].

Loyihada undoshlar (ular somit tovushlar (harflar) deb atalgan) quyidagicha berilgan:

*Somit tovushlar (harflar)*

ب -b (baba), چ-c (bäccä), -d (dada), ف -f (firät), گ -g (gälä), ھ -h (här), ج -j (jar), ک -k (käl), ل -l (qul), م -m (men), ن -n (nonaq), ك -ng (tang), پ- p (apa), ق -q (qaq), غ- ɑ (ɑar), ر -r (qar), س -s (sel, saqal), ش -š (aš),ت -t (tal), ۋ -v (av, ɑav); خ-x (xatin), ي-y (ay, yay, ayl), ژ -ƶ (muƶda), ’- apostrof [6:49].

M.Bogdanova mazkur loyihani quyidagicha keltiradi:

Ilmiy markaz layihasi [14].

Unli harflar

| **Eşlik** | **Eşsiz** |
|---|---|
| ا - a | ه - a |
| و - o | ۇ - o |
| و - u | ۇ - u |
| ئ - i | ې - i |
| ئې - iy | يې - iy |

Unsiz harflar

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| v<br>ب | s<br>چ | d<br>د | f<br>ف | g<br>گ | h<br>ھ |
| ç<br>ج | k<br>ك | l<br>ل | m<br>م | n<br>ن | ng<br>ڭ |
| p<br>پ | q<br>ق | ɑ<br>غ | r<br>ر | s<br>س | ş<br>ش |
| t<br>ت | v<br>ۋ | x<br>خ | Zz<br>ز | | |

Mutaxassislar tomonidan berilgan loyihalar xususida quyidagi fikrlarni aytish mumkin:

- H.Jamolxonovlar tomonidan berilgan loyiha variantida unlilar qalin va yumshoq unlilar deb ajratilgan, lekin loyihaning asl variantida qattiq unlilar, bo‘shang unlilar deb berilgan.
- N.Yangiboyevaning ko‘rsatgan unlilari orasida i, e unlilari yetishmaydi, balki keltirilgan ilovasida to‘liq bergandir, lekin 12 cho‘zg‘i (unli) berilgan deb aytadi.
- M.Bogdanova variantida unlilar eshlik (qalin) va eshsiz (yumshoq) deb ajratiladi.
- M.Bogdanova nimagadir har ikki tur unlilarni bir xil belgilar bilan beradi, faqat arab yozuvida berilgan harflarda farqlanadi.

H.Jamolxonovlar variantida portlovchi “j” tovushi uchun *j* berilgan bo‘lsa, M.Bogdanovada *ç* harfi bilan beriladi.

- H.Jamolxonovlarda “sh” tovushi uchun olingan š harfida “ˇ” belgisi ustiga qo‘yilgan bo‘lsa, M.Bogdanovada ostiga qo‘yilgan.
- H.Jamolxonovlar variantida qorishiq “j -ژ ” uchun ƶ harfi olingan, M.Bogdanova keltirgan loyihada esa faqat portlovchi “j” tovushi uchun *z* harfi olingan.
- Undoshlar soni bo‘yicha bir xil ma’lumotlar keltirilgan.

Undoshlarga shakl olinishida mazkur loyiha ancha mukammal tuzilgan bo‘lishiga qaramay, buning ham o‘ziga yarasha yutuqlari, kamchiliklari bor edi. Avvalgi loyihada ژ(sirg‘aluchi), ج (qorishiq) undoshlari uchun bitta shakl “z” olingan edi, yangisida esa ikkalovi uchun alohida shakllar olingan: ج -j, ژ -ƶ, lekin ikki undosh uchun alohida shakl olinishi unchalik to‘g‘ri emas, chunki o‘zbek tilida ژ undoshi bilan ifodalanadigan so‘zlar sanoqli, ikkinchidan, bu undosh uchun “ƶ” shaklining olinishi muvaffaqiyatsiz chiqqan. غ- (g‘) uchun “z” shaklining olinishi bo‘yicha

shunday fikr aytish mumkin. ڭ -ŋ undoshi uchun harfiy birikma (ng) olinishi ham bir harfga bir shakl tamoyilidan chekinish bo‘lgan, bu jihatdan avvalgi loyihada to‘g‘ri yo‘l tutilgan edi. avvalgi loyihada “ش” (sh) uchun “z” shakli olinib, jiddiy munozaralarga ham sabab bo‘lgan edi, uning o‘rniga boshqa turkiy tillardagi kabi “š” shaklining olinishi muvaffaqiyatli bo‘lgan. Avvalgi loyihada ى-(y) undoshi uchun “j” shakli olingan edi, yangi loyihada “u” shaklining olinishi to‘g‘ri bo‘lgan, chunki lotin alifbosida “j” shakli “j” undoshini ifodalaydi, “u” hozirgi alifbomizda ham (y) ni bildiradi. Amaldagi loyihada ې uchun “j” shaklining olinishi to‘g‘ri bo‘lgan. Yangi loyihada ’- apostrofning berilishi ham imloni mukammallashtirishga xizmat qilgan.

1926-yilning 27-29-avgust kunlari ilmiy markazning yangi alifbo loyihasiga bag‘ishlangan navbatdagi kengashi bo‘lib o‘tadi. Kengashda may oyida bo‘lib o‘tgan kengash tavsiya qilgan va O‘zbekiston xalq maorifi komissarligi huzuridagi Ilmiy markaz tomonidan 11-avgustda bo‘lib o‘tgan majlisda ma’qullangan yangi alifbo loyihalari muhokama qilinadi.

O‘zbekiston Maorif komissarligining tashabbusi bilan 1927-yil 28-mayda Samarqand shahrida yangi alifbo kengashi chaqiriladi. O‘rta Osiyo miqyosida chaqirilgan bu kengashga Qozog‘iston, Qirg‘iziston vakillari ishtirok etadilar. Ikki kun davom etgan kengashda O‘rta Osiyo turkiy xalqlarining yangi alifbolari asosida yagona alifbo masalasi hal qilindi. Kengash birlashgan yangi alifbo tuzishda quyidagi asoslarga tayandi:

1) O‘rta Osiyo xalqlarida umum va mushtarak bo‘lgan tovushlarga bir xil shakllar (harflar) olindi;

2) bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan tovushlariga alohida harflar olinib, u harflar mushtarak alifboga kirgizildi. Masalan, o‘zbek va qirg‘izlarda (z – ش) tovushi bo‘lib, bu tovush o‘rnida qozoqlarda (s-س) ishlatilsa-da, bu tovushga alohida harf olindi. Shunga o‘xshash o‘zbek tilida bo‘lgan (x - خ) harfi qirg‘iz tilida bo‘lmasa-da, bu tovush uchun olingan (x) shakli umumalifboga kiritildi;

3) O‘rta Osiyodagi barcha turkiy tillarning hammasida ham qalinliq va ingichkalik (singarmonizm) qonuni bo‘lganligini e’tiborga olib, tovushlarga shakllar (harflar) belgilashda bu qonundan foydalanildi, ya’ni juft (qalin-ingichkalik bo‘yicha juftlik) tovushlarning faqat qalinlarigagina shakl olinib, ingichkalari maxsus belgi (ingichkaligi) bilan ifodalandi. Bu yo‘l bilan tovushlarning shakllarida, harflar belgilashda iqtisod qilindi, ya’ni to‘qquz unli tovushga besh shakl (harf) va 39 undosh tovushga 23 shakl (harf), jami 28 harf olindi;

4) Tovushlarga harflar tanlash jarayonida kengash shunday asos tutdi: a) tovushlarning shakllari faqat lotin alifbosidan, agar u yerda bo‘lmasa, lotin harflari asosida tuzilgan alifbolardan olindi; v) lotin harflari lotinchada ifoda qilgan tovushlariga mos qilib olindi; g) harflarning bir-biriga o‘xshash bo‘lib qolishidan qochildi; d) harflarning ostiga yoki ustiga nuqta va belgilar qo‘yishdan mumkin qadar saqlanildi; e) bir tovushga murakkab shakl olinmadi; j) ta’limda yengillik va iqtisod yuzasidan harflarning birgina shakllari, ya’ni katta, kichik, yozma va bosma harflarlarning kichik shakli qabul qilindi.

Unli va undosh qalin tovushlarining ingichka variantini ko‘rsatish uchun bir belgi, ya’ni ingichkalik belgisi **(v)** olindi. Bu belgi ingichka (yumshoq) so‘zlarning oldiga qo‘yildi, biroq shaklan ko‘rinib turgan so‘zlar (ya’ni *k*, *g*, *ye*li so‘zlar yumshoq sanalgan)da bu belgi qo‘yilmadi [15:49].

Yagona alifbo yaratishda kengashning yuqoridagi asoslarini tahlil qilar ekanmiz, kengash tarkibiga malakali mutaxasslar jalb qilingani, belgilangan talablar ilmiy asosga ega bo‘lganini ko‘ramiz. Ayniqsa, harflarning ust-ostiga nuqta yoki belgilar qo‘yishdan, harflarning o‘xshash bo‘lib qolishidan saqlanilgani, barcha tillarning o‘ziga xosligining e’tiborga olingani ijobiy holatdir.

O‘zbek, qozoq va qirg‘iz jumhuriyatlari vakillarining kengashida 1927 yil 28-29 mayda Samarqand shahrida qabul etilgan alifbo:

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **a** | **b** | **ƶ (j)** | **d** | **e** |
| **q** | **ɣ(g‘)** | **k** | **g** | **i** |
| **l** | **m** | **n** | **ŋ(ng)** | **o** |
| **p** | **r** | **s** | **z(sh)** | **t** |
| **u** | **c(ch)** | **z** | **y** | **v** |
| **x** | **h** | **f** | **V** Ingichkalik belgisi | **‘** apostrof |

Bu alifboning muomalaga kirgan-kirmaganligidan qat'iy nazar, o'sha vaqtdayoq qo'shnilarning o'zaro yaqinlikka intilishining o'zi juda katta ijobiy voqea edi.

"O'zbek yangi alifbosini tuzishda asoslar" risolasida to'rtinchi loyiha berilgan. Loyiha materiallari Abdulla Alaviy tomonidan yig'ilib, risola tarzida 1927-yilda nashr qilingan. Risolaning muqovasida u "Matiriyallardan to'plab tuzguchi: Abdulla Alaviy" deb yozib qo'ygan [16:24].

Mazkur loyiha ancha mukammal, ilmiy asoslangan holda tuzilgan, munozarali o'rinlari ham bor, albatta. U O'zbekiston tomonining Bokuda bo'lib o'tadigan turkiyot qurultoyiga taqdim qilinadigan so'nggi xulosasi sifatida ta'kidlangan. Bu haqda Abdulla Alaviyning o'zi ham 1926-yilda "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 6-sonida e'lon qilingan "Yangi layiha (Ilmiy Markaz layihasini quvvatlab)" nomli maqolasida "...Ilmiy markaz yaqinda butun O'zbekistandan vakillar charlab, bu masala haqqida bir kengash majlisi chaqiradir. Unda qabul qiling'an layiha sentabrda Bakuda bo'ladurg'an butun turk tillarining kengashi majlisiga taqdim qiling'usidir. U yerda turk xalqlari alifbo masalasida bir fikrga kelarlar – deb umid qilamiz" deb yozadi. Risolaning o'zida ham "... o'zbek latinchasining bu qarari ilmiy kuchli asasqa malik bo'lg'anidan Bakuda bo'laturg'an "alifbalarni birlashtiriru qunfiransiyasi" bu masalada o'zbek latinchilarining faydasig'a hukm etar" kabi fikr bor [15:51-53].

Loyihani ishlashda Ozarbayjon tajribasiga tayanganlar, ulardagi mavjud shakllarni aynan olishga harakat qilganlar. Bu haqda Abdulla Alaviy yuqoridagi maqolasida ham aytib o'tadi: "Shakl olishda Azarbayjandan ajralmaslik uchun azarbayjan sayitlarini aynan qabul qilg'an edi. Faqat ba'zi tavushlarni shakl alishda yanada ilmiyrak bir yo'l tutmak uchun Azarbayjandan bir az ajralgan edik" [15:53].

## XULOSA

Yangi o'zbek alifbosi loyihalarini tuzishda turli kamchiliklar, xatoliklarga qaramay, bu jarayonning o'zi tahsinga sazovordir. Millat taqdiriga befarq bo'lmagan jadidlar alifbo mukammalligi uchun harakat qildilar. Qardosh turkiylar tajribalarini, qardosh bo'lmagan tillar alifbolarini tahlil qilib, ulardagi ijobiy jihatlarni o'zlashtirdilar.

Jadidlarimiz faoliyatini tahlil qilish orqali o'zbek tilshunosligi tarixining hali o'rganilmagan davrlari to'ldirib boriladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1993. – 120 б. (Kurbanova M. The linguistic heritage of Fitrat. Candidate of philological sciences dissertation. - Tashkent, 1993. – 120 pages)
2. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз. дисс... – Бухоро, 2001. – 204 б. (Sayidov Y. Lexicon of Fitrat literary works. Candidate of philological sciences dissertation. - Bukhara, 2001. – 204 pages)
3. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. дисс... – Бухоро, 2013. – 302 б. (Sayidov Y. Lexicon of Jadid literary works. Doctor of philological sciences dissertation. - Bukhara, 2013. – 302 pages)
4. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида). Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2000. – 120 б. (Yuldashev M. Chulpan's literary language skills (on the example of the novel "Day and night"). Candidate of philological sciences dissertation. - Tashkent, 2000. – 120 pages).
5. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. … дис. автреф. – Тошкент, 2004. – 24 б. (Ne'matova D. Linguistic analysis of Chulpan's publicist works. Candidate of philological sciences dissertation. Abstract. – Tashkent, 2004. – 24 pages).
6. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002. – 132 б. (Babomurodova Sh. The role of Elbek in the development of Uzbek linguistics. Candidate of philological sciences dissertation. - Tashkent, 2002. – 132 pages).
7. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2005. – 24 б. (Togaev T. Ashurali Zahiri and his linguistic legacy. Candidate of philological sciences dissertation. Abstract - Tashkent, 2005. – 24 pages).
8. Бобониёзов А. А.Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романида тасвирий воситалар ва тил бадийяти: Филол. фанлари ном. … дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б. (Bobaniyozov A. Imagery and language arts in A.Kadiri's novel "Days Gone By". Candidate of philological sciences dissertation. Abstract. - Tashkent, 1995. – 24 pages).
9. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маънавий ва услубий хусусиятлари: : Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б. (Chorieva Z. Lexico-spiritual and methodological features of the letters in the novel "Days Gone By" by Abdullah Kadiri: Candidate of philological sciences dissertation. Abstract. – Tashkent, 2006. – 23 pages).
10. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б. (Djalolova L. Linguistic study of Abdullah Kadiri's novel "Days Gone Days": Candidate of philological sciences dissertation. Abstract. – Tashkent, 2007. – 22 pages).

11. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 25 б. (Normamatov S. Spiritual and methodological features of the lexicon of Abdullah Avlani's poetry: Candidate of philological sciences dissertation. Abstract. – Tashkent, 2011. – 25 pages).

12. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. I китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – 446 б. (Jamolkhanov H., Umarov A. 20th century history of Uzbek writing. Book I. - Tashkent: Publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2017. – 446 pages).

13. Янгибаева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... – Қарши, 2019. – Б.127. (Yangibaeva N. The process of Uzbek linguistics in the 1920s. Dissertation written for the degree of candidate of philological sciences. - Karshi, 2019. – 127 pages).

14. Bagdanova M. Latin asasida tuzilg'an o'zbek layihalarining tarixiga bir nazar// Alanga, 1926, №2. (Bagdanova M. A look at the history of Uzbek projects based on Latin// Alanga, 1926, №2.)

15. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. II китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2019. – Б.426 (Jamolkhanov H., Umarov A. 20th century history of Uzbek writing. Book II. - Tashkent: National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2019. - 426 pages).

16. O'zbek yangi alifbasini tuzishda asaslar (Matiriyalardan to'plab tuzguchi: Abdulla Alaviy). – Samarqand – Tashkent. – 1927 (arab yozuvida). (The basics in the creation of the Uzbek new alphabet (Compiler from materials: Abdulla Alaviy). - Samarkand - Tashkent. – 1927 (in Arabic script).